

SVO VA SOV SO‘Z TARTIBI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARINING QIYOSIY- TIPOLOGIK TAHLILI

Karimov Ibratullo Ibaydullayevich

Turon Universiteti Andijon filiali 2-bsqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22762985>

Qabul qilindi: 7-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Ushbu tezis ingliz va o‘zbek tillarida so‘z tartibining qiyosiy-tipologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ingliz tiliga xos SVO (Subject–Verb–Object) hamda o‘zbek tilida ustuvor hisoblangan SOV (Subject–Object–Verb) modellarining strukturaviy va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Ingliz tilida so‘zlarning gapdagi joylashuvi grammatik munosabatlarni ifodalashda muhim vosita vazifasini bajarsa, o‘zbek tilida kelishik qo‘shimchalari va boshqa morfologik vositalar sababli so‘z tartibining nisbatan erkinligi kuzatiladi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, tavsifiy va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalari SVO va SOV modellarining farqi faqat kesim va to‘ldiruvchining joylashuvi bilan chegaralanmasligini, balki axborot tuzilishi, ta’kid, kommunikativ maqsad hamda tarjima jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:

so‘z tartibi, SVO, SOV, sintaksis, qiyosiy-tipologik tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, gap tuzilishi, kesim, to‘ldiruvchi, kommunikativ vazifa.

Kirish.

So‘z tartibi har qanday tilning sintaktik tizimida muhim o‘rin egallaydigan hodisalardan biridir. Gap tarkibidagi asosiy bo‘laklarning, xususan, ega, kesim va to‘ldiruvchining o‘zaro joylashuvi grammatik munosabatlarni shakllantirish bilan birga, fikrning qanday ifodalanishi va tinglovchiga qanday yetkazilishini ham belgilaydi. Jahon tillarini sintaktik jihatdan tasniflashda ega, kesim va to‘ldiruvchining o‘zaro joylashuviga asoslangan SVO, SOV, VSO, VOS, OSV va OVS kabi asosiy modellar ajratiladi. Ushbu modellar ichida SVO va SOV eng ko‘p uchraydigan so‘z tartibi turlaridan hisoblanadi [1. 73–78].

Ingliz va o‘zbek tillari so‘z tartibi nuqtayi nazaridan o‘zaro sezilarli farqlarga ega. Ingliz tilida oddiy darak gaplarning asosiy modeli SVO, ya’ni Subject–Verb–Object tartibida shakllanadi. O‘zbek tilida esa SOV, ya’ni Subject–Object–Verb modeli ustuvor hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi “The student reads a book” gapida ega, kesim va to‘ldiruvchi ketma-ketligi kuzatiladi. Ushbu gap o‘zbek tiliga “Talaba kitob o‘qiydi” tarzida tarjima qilinganda esa to‘ldiruvchi kesimdan oldin, kesim esa gapning oxirida keladi. Shunday qilib, mazmun jihatidan bir-biriga mos bo‘lgan gaplar ikki tilda turlicha sintaktik modellar asosida shakllanadi [2. 45–78].

So‘z tartibidagi ushbu farq ingliz tilini o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarga o‘rgatish jarayonida ham alohida ahamiyatga ega. O‘zbek tilining sintaktik modelini ingliz tiliga bevosita ko‘chirish natijasida grammatik jihatdan noto‘g‘ri gaplar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi “Men kitob o‘qiyman” gapining tarkibiy tuzilishini aynan saqlagan holda ingliz tiliga ko‘chirish “I book read” kabi noto‘g‘ri konstruksiyaga olib keladi. Ingliz tilida esa mazkur mazmun “I read a book” shaklida ifodalanadi. Shu sababli ikki tilning so‘z tartibini qiyosiy o‘rganish nazariy

tilshunoslik bilan bir qatorda chet tilini o'qitish va tarjima amaliyoti uchun ham muhimdir [3. 799–802].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida SVO hamda SOV so'z tartibi modellarining strukturaviy va funksional xususiyatlarini aniqlash hamda ularning o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ingliz tilidagi SVO modelining sintaktik xususiyatlarini tavsiflash, o'zbek tilidagi SOV modelining o'ziga xos jihatlarini aniqlash, ikki tilda so'z tartibining kommunikativ vazifalarini qiyoslash hamda mazkur farqlarning tarjima jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatish vazifalari belgilandi.

Asosiy qism. Tilshunoslikda so'z tartibi gap tarkibidagi asosiy sintaktik birliklarning o'zaro joylashuvini anglatadi. So'z tartibini o'rganishda, avvalo, ega, kesim va to'ldiruvchining joylashuvi hisobga olinadi. Ingliz va o'zbek tillarida mazkur uch asosiy komponentning joylashuvi turlicha bo'lib, bu holat ushbu tillarning sintaktik tipologiyasini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biridir. Greenberg tomonidan ishlab chiqilgan sintaktik universalialar nazariyasida tillarning asosiy so'z tartibi ega, kesim va to'ldiruvchining o'zaro joylashuvi asosida tasniflanadi [1. 73–78].

Ingliz tilida SVO tartibi dominant hisoblanadi. Bunda ega gap boshida, kesim egadan keyin, to'ldiruvchi esa kesimdan keyin keladi. Masalan, "John reads a book" gapida "John" ega, "reads" kesim, "a book" esa to'ldiruvchi vazifasida kelgan. Mazkur gapning strukturasi S+V+O tarzida ifodalanadi. Ingliz tilida bunday tartibning muhimligi shundaki, so'zlarning gapdagi o'rni ko'pincha ularning grammatik vazifasini aniqlashga yordam beradi [4. 1209–1219].

Masalan, "The teacher helps the student" gapida "the teacher" ega, "helps" kesim va "the student" to'ldiruvchidir. Agar gapdagi otlarning o'rni almashtirilsa, "The student helps the teacher" shakli yuzaga keladi. Bunda gapning grammatik tuzilishi saqlangan bo'lsa-da, semantik mazmun o'zgaradi. Birinchi gapda o'qituvchi yordam beruvchi shaxs bo'lsa, ikkinchi gapda bu vazifani talaba bajaradi. Demak, ingliz tilida so'zlarning linear tartibi sintaktik munosabatlarni anglashda katta ahamiyatga ega.

Ingliz tilida SVO tartibi dominant bo'lsa-da, uni mutlaq va o'zgarmas tartib sifatida baholash mumkin emas. Turli kommunikativ va sintaktik vaziyatlarda gap bo'laklarining joylashuvi o'zgarishi mumkin. Inversiya, passiv konstruksiyalar, ta'kidlovchi qurilmalar va ayrim boshqa sintaktik vositalar orqali kanonik tartib modifikatsiya qilinadi. Shunga qaramay, oddiy darak gaplarda SVO modeli ingliz tilining asosiy so'z tartibi sifatida saqlanib qoladi [4. 1209–1219].

O'zbek tilida esa gapning neytral va dominant modeli SOV hisoblanadi. Bunda ega gap boshida, to'ldiruvchi kesimdan oldin, kesim esa odatda gap oxirida joylashadi. Masalan, "Men kitob o'qidim" gapida "men" ega, "kitob" to'ldiruvchi va "o'qidim" kesim vazifasini bajarmoqda. Ushbu tartib o'zbek tilining odatiy sintaktik qurilishiga mos keladi [5. 1–5].

O'zbek tilida kesimning gap oxirida kelishi sintaktik tizimning muhim xususiyatlaridan biridir. Fe'l-kesimning final pozitsiyasi gapning predikativ markazini shakllantiradi. Bundan tashqari, o'zbek tilida kelishik qo'shimchalari ham sintaktik munosabatlarni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, "kitobni", "kitobga", "kitobdan" kabi shakllardagi qo'shimchalar otning gapdagi sintaktik vazifasini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli o'zbek tilida so'zlarning o'rnini ma'lum darajada o'zgartirish imkoniyati mavjud.

Masalan, "Men kitobni o'qidim" gapida odatiy SOV tartibi mavjud. Biroq kommunikativ maqsadga ko'ra "Kitobni men o'qidim" shakli ham qo'llanishi mumkin. Ikkinchi variantda "kitobni" komponenti oldinga chiqarilib, unga nisbatan ta'kid kuchaytiriladi. Gapning asosiy mazmuni saqlanib qolsa-da, uning kommunikativ yo'nalishi o'zgaradi. Bu holat o'zbek tilida so'z tartibining nafaqat sintaktik, balki pragmatik vazifani ham bajarishini ko'rsatadi [6. 155–160].

Shu jihatdan o'zbek tilidagi SOV modelini qat'iy va o'zgarmas tartib sifatida emas, balki neytral yoki dominant tartib sifatida baholash maqsadga muvofiq. Kontekst, kommunikativ maqsad, ta'kid va axborotning yangilik darajasiga qarab gap bo'laklarining joylashuvi o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarishlar ko'pincha grammatik xatoga olib kelmaydi, chunki sintaktik munosabatlar kelishik qo'shimchalari va boshqa grammatik vositalar orqali ham ifodalanadi [7. 1–5].

Ingliz va o'zbek tillarining SVO va SOV modellari o'rtasidagi asosiy farq kesim va to'ldiruvchining o'zaro joylashuvida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida kesim odatda to'ldiruvchidan oldin keladi: "I read a book". O'zbek tilida esa to'ldiruvchi kesimdan oldin joylashadi: "Men kitob o'qiyman". Shunday qilib, ingliz tilida asosiy model S+V+O bo'lsa, o'zbek tilida S+O+V modeli ustuvordir.

Bu farqni boshqa misollarda ham ko'rish mumkin. Ingliz tilidagi "She bought a car" gapi o'zbek tilida "U mashina sotib oldi" tarzida ifodalanadi. "They watched a film" gapining o'zbekcha varianti "Ular film tomosha qildilar" bo'ladi. Ushbu misollarning barchasida ingliz tilidagi fe'l to'ldiruvchidan oldin, o'zbek tilidagi fe'l esa to'ldiruvchidan keyin keladi. Mazkur sintaktik farq ikki tilning tipologik xususiyatlarini yaqqol ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek tillarida so'z tartibining boshqa jihatlarida ayrim o'xshashliklar ham mavjud. Masalan, sifatlovchi va otning o'zaro munosabatida ikkala tilda ham aniqlovchi odatda aniqlanishdan oldin keladi. Ingliz tilidagi "a new book" birikmasi o'zbek tilida "yangi kitob" tarzida ifodalanadi. Demak, barcha sintaktik munosabatlarda tillar o'rtasida keskin farq mavjud emas. Asosiy tafovut gapning predikativ markazi, xususan, kesimning to'ldiruvchiga nisbatan joylashuvida ko'zga tashlanadi.

So'z tartibining yana bir muhim jihati uning kommunikativ vazifasi bilan bog'liq. Gap tarkibidagi axborotning qaysi qismi ma'lum, qaysi qismi yangi ekanligi so'zlarning joylashuviga ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbek tilida gap bo'laklarining o'rnini o'zgartirish orqali ma'lum bir komponentni ta'kidlash imkoniyati nisbatan keng. Masalan, "Men bugun universitetga bordim" gapida neytral axborot tartibi kuzatiladi. "Universitetga men bugun bordim" shaklida esa "universitetga" komponenti kommunikativ jihatdan ajratilishi mumkin. Bunday holatlarda sintaktik tartibning o'zgarishi gapning umumiy mazmunidan ko'ra, uning axborot tuzilishiga ta'sir qiladi [6. 155–160].

Ingliz tilida ham kommunikativ ta'kidni ifodalash uchun turli sintaktik vositalar mavjud. Biroq oddiy darak gaplarda asosiy SVO tartibi odatda saqlanadi. Ta'kid ko'pincha intonatsiya, maxsus sintaktik konstruksiyalar yoki boshqa grammatik vositalar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'zbek tilida so'z tartibining kommunikativ maqsad asosida o'zgarishi ingliz tiliga qaraganda ko'proq sezilishi mumkin.

SVO va SOV tizimlarining farqi tarjima jarayonida ham alohida ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida bir tildagi gapning so'zma-so'z strukturasi ikkinchi tilga aynan ko'chirilsa, tabiiy bo'lmagan yoki grammatik jihatdan noto'g'ri konstruksiyalar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, "The student reads the article" gapini so'zma-so'z "Talaba o'qiydi maqolani" tarzida tarjima qilish o'zbek tilining odatiy so'z tartibiga mos kelmaydi. Tabiiy variant "Talaba maqolani o'qiydi" shaklida bo'ladi. Bu yerda tarjimon ingliz tilidagi SVO modelini o'zbek tilidagi SOV modeliga moslashtiradi.

Xuddi shunday, o'zbek tilidagi "Talaba maqolani o'qiydi" gapini ingliz tiliga tarjima qilishda "The student reads the article" shakli hosil qilinadi. Bunda o'zbek tilidagi SOV modeli ingliz tilining SVO modeliga aylantiriladi. Demak, tarjimada faqat alohida so'zlarning ma'nosini emas, balki ularning sintaktik munosabatlarini ham hisobga olish zarur [3. 799–802].

Mazkur masala ingliz tilini o'zbek tilida so'zlashuvchilarga o'rgatishda ham muhimdir. Til o'rganuvchilar ko'pincha ona tilining sintaktik modelini o'rganayotgan tilga ko'chirishga moyil bo'ladilar. O'zbek tilida fe'lning gap oxirida kelishi odatiy bo'lganligi sababli ingliz tilida ham fe'lni oxirgi pozitsiyada qo'llash xatosi uchrashi mumkin. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda SVO modelini o'zbek tilidagi SOV modeli bilan qiyoslash o'rganuvchilarning sintaktik farqlarni tezroq anglashiga yordam beradi.

Qiyosiy-tipologik tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi so'z tartibi farqi ularning umumiy grammatik tizimlari bilan chambarchas bog'liq. Ingliz tili grammatik munosabatlarni ifodalashda so'zlarning sintaktik pozitsiyasiga ko'proq tayanadi. O'zbek tilida esa so'z tartibi bilan bir qatorda morfologik ko'rsatkichlar, xususan, kelishik qo'shimchalari muhim rol o'ynaydi. Natijada o'zbek tilida so'z tartibining nisbatan moslashuvchanligi yuzaga keladi.

Shuningdek, SVO va SOV modellari qiyoslash faqat ikki tilning grammatik farqlarini ko'rsatish bilangina cheklanmaydi. Ushbu tahlil tillarning axborot tuzilishi, kommunikativ

tashkiloti, tarjima strategiyalari va chet tilini o'zlashtirish jarayonidagi muammolarni aniqlash imkonini beradi. Shu ma'noda so'z tartibi qiyosiy tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Ingliz va o'zbek tillaridagi so'z tartibini qiyosiy-tipologik o'rganish natijasida mazkur tillarning gap qurilishida SVO va SOV modellarining ustuvorligi aniqlandi. Ingliz tilida oddiy darak gaplarning asosiy modeli Subject-Verb-Object, ya'ni ega-kesim-to'ldiruvchi tartibida shakllansa, o'zbek tilida Subject-Object-Verb, ya'ni ega-to'ldiruvchi-kesim modeli dominant hisoblanadi [1. 73–78; 2. 45–78].

Ikki til o'rtasidagi asosiy farq kesim va to'ldiruvchining o'zaro joylashuvida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida fe'l odatda to'ldiruvchidan oldin keladi, o'zbek tilida esa fe'l-kesim ko'pincha gapning oxirida joylashadi. Ushbu farq ingliz va o'zbek tillarida gap tuzish, tarjima qilish va chet tilini o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida o'zbek tilida so'z tartibining ingliz tiliga nisbatan moslashuvchanroq ekanligi ham kuzatildi. Buning asosiy sabablaridan biri o'zbek tilida kelishik qo'shimchalari va boshqa morfologik vositalarning mavjudligi bo'lib, ular so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, o'zbek tilidagi so'z tartibining o'zgarishi ko'pincha kommunikativ urg'u, ta'kid va axborot tuzilishini ifodalashga xizmat qiladi [6. 155–160].

Ingliz tilida esa so'zlarning gapdagi pozitsiyasi grammatik munosabatlarni aniqlashda nisbatan katta rol o'ynaydi. Shuning uchun SVO tartibining o'zgarishi ayrim hollarda gapning grammatik yoki semantik talqiniga ta'sir qilishi mumkin. Biroq ingliz tilida ham turli sintaktik va pragmatik konstruksiyalar orqali kanonik tartib o'zgarishi mumkinligini hisobga olish lozim.

Umuman olganda, SVO va SOV modellarini qiyosiy-tipologik o'rganish ingliz va o'zbek tillarining sintaktik tizimlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur farqlarni aniqlash va tushuntirish ingliz tilini o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalarga o'rgatishda, tarjima jarayonida sintaktik xatolarni kamaytirishda hamda ikki tilning grammatik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Greenberg, J. H. *Universals of Language*. 2nd ed. Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1966. – B. 73–78.
2. Comrie, B. *Language Universals and Linguistic Typology: Syntax and Morphology*. 2nd ed. Chicago: University of Chicago Press, 1989. – B. 45–78.
3. Ubaydullayeva, O., Jumakulova, Sh. "Contrastive Analysis of Word Order Patterns of Simple Sentences Structure in English and Uzbek Languages". *Modern Science and Research*, 2025. – B. 799–802.
4. Huddleston, R., Pullum, G. K. *The Cambridge Grammar of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – B. 1209–1219.
5. *Uzbek Grammar*. Duke University, Slavic and Eurasian Studies. – B. 1–5.
6. Sherimbatova, O., Rozikova, Z. "Comparing Word Order in English and Uzbek Sentences". *Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya*, 2025. – B. 155–160.
7. Ravshanbekova, L., Kosheva, D. Kh. "Word Order Patterns in English and Uzbek Sentences". *Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali*, 2025. – B. 1–5.

Abstract.

This thesis examines the comparative and typological characteristics of word order in English and Uzbek. Particular attention is given to the SVO (Subject-Verb-Object) pattern characteristic of English and the SOV (Subject-Object-Verb) pattern generally dominant in Uzbek. In English, the linear position of sentence constituents plays an important role in expressing grammatical relations, whereas Uzbek demonstrates relatively greater flexibility in word order due to the use of case markers and other morphological devices. The study employs comparative-typological, descriptive, and contextual methods of analysis. The results show that the distinction between SVO and SOV patterns is not limited to the position of the verb and object but is also related to

information structure, emphasis, communicative intention, and translation between the two languages.

Keywords:

word order, SVO, SOV, syntax, comparative typology, English, Uzbek, sentence structure, verb, object, communicative function.